

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Madraimova Gulnora Kamoldinovna

Toshkent xalqaro Nordik Univarsiteti 2-MMT gurux talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10966809>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida boshqaruv faoliyatini tashkil etishda ta'lism-tarbiyani innovatsion g'oyalar asosida olib borish o'rnatildi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'lism-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni innovatsion texnologiyalar asosida hal etish usullari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, pedagogika, kadrlar, interfaol, samaradorlik, innovatsion texnologiya, innovatsion faoliyat.

THEORETICAL BASIS OF ORGANIZING INNOVATIVE ACTIVITY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. In this article, the organization of management activities in preschool educational organizations was studied to conduct education on the basis of innovative ideas.

Methods of solving problems arising in the educational process in preschool educational organizations on the basis of innovative technologies were considered.

Keywords: Innovation, pedagogy, personnel, interactive, efficiency, innovative technology, innovative activities

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

***Аннотация.** В данной статье исследована организация управленческой деятельности в дошкольных образовательных организациях на основе инновационных идей. Рассмотрены методы решения проблем, возникающих в процессе обучения в дошкольных образовательных организациях на основе инновационных технологий.*

***Ключевые слова:** Инновации, педагогика, персонал, интерактив, эффективность, инновационные технологии, инновационная деятельность.*

Kirish

Bugungi kunda ta'lism jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limga samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor hamda talab kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaliv texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rnatib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish masalalarini hal etishga harakat qiladi.

Ta'lism-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatli tomoni, shaxsnı rivojlantiruvchi ta'limga amalga oshirish imkoniyatining kengligidir.

Maktabgacha ta'limga yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish tarbiyani ta'limga bog'lash, har ikkisini tuzilishi va mazmuni jihatdan yaxlitlashtirishga, tarbiyalanuvchi faoliyatini mujassamlashtirishga, mustaqil fikrashga yo'llash uchun qulay sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, ma'nан yetuk, barkamol shaxslarga aylantiradi. Shuning uchun ham ta'lif muassasalaridagi ta'lif-tarbiya jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir.

Muhokama

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda inovatsiyaga to'xtaladigan bo'lsak, Innovatsiya (inglizcha innovatsion – yangilik kiritish) bu - tizimning ichki tuzilishini o'zgartirish demakdir. Innovatsiyalar dolzarb ahamiyatli bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir.

Pedagogika sohasiga innovatsiya tushunchasi XX asrning 80-yillarida kirib kelgan bo'lib, ta'lif-tarbiya jarayonini va uning natijalarini yaxshilashga xizmat qiluvchi yangiliklar tizimini anglatadi. Pedagogik innovatsiyalar tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lif mazmunining rivoji uchun istiqbolli xizmat qiladi. Ta'lif tizimining rivojiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsion texnologiyalarni ta'lif - tarbiya jarayonida to'g'ri qo'llay olish ko'p jihatdan pedagogim mahorati va ijodkorligiga bog'liqdir.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablariga muvofiq intellektual rivojlangan, ma'nан yetuk, mahoratlari va qobiliyatli, zamon talabi darajasidagi mutaxassis kadrlarni yetishtirish ta'limga yangiliklar kiritishning davomiyligini kafolatlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda pedagog faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi.

Boshqacha qilib aytganda, ta'lif va tarbiya berishning interfaol uslublarini bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil qila bilishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lif va tarbiya oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadilar, ularning biladigan va o'layotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tarbiyalanuvchilarning mustaqil va erkin faoliyatiga zamin yaratiladi.

Shuning uchun maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar yordamida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ya'niki, mashg'ulotlar orqali samarali natjalarga erishish ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali yuzaga keladi.

Pedagogik texnologiya ta'limga tizimli yondashuv asosida tadbiq etiladi hamda tarbiyalanuvchining yoshi, ruhiyati, dunyoqarashi, bilimi, faollik darajasi, ta'lif-tarbiyaning maqsadi, yo'nalishi, mazmuni, shakllari, usullari e'tiborga olinadi. Pedagogning bu jarayon tashkilotchisi, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va mahorati, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta'sir ko'rsatish, bolani faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qo'llab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Tahlil va natijalar

Innovatsion faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida faoliyat yuritishdir. U uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Maktabgacha ta'lif tashkilotida innovatsion jarayonni tashkil etish va boshqarishda asosiy shaxs bu tashkilot rahbari hisoblanadi. Tashkilot rahbarining vazifasi innovatsion jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish hamda pedagoglar o'rtasidagi raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat. Shuningdek, tashkilot

rahbari xodimlar faoliyatini tahlil qilishi, samaradorlik darajasini aniqlashi, innovatsiyani doimiy rivojlantirishi talab etiladi. Biz bilamizki, innovatsion jarayonlarni boshqarish o‘ziga xos muammodir. Bu jarayonda rahbarning tashabbuskorlik faoliyati, boshqaruvchilik qobiliyati alohida o‘rin egallaydi.

Takliflar: ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlarning boshqaruvi 4 bosqichda amalga oshirish mumkin:

- Rejallashtirish
- Tashkil etish
- Rahbarlik
- Nazorat qilish kabi jarayonlardir.

Bu izchillik rahbar tomonidan to‘laqonli amalga oshirilsa, ta’lim jarayonidagi innovatsion faoliyatdagi mavjud to‘siqlar muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin.

Rejallashtirish - faoliyat ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, ta’lim strategiyalarini aniqlash, kelgusida qanday natijalarga erishish ko‘zda tutilayotganligi, ta’lim samaradorligi, buning uchun qanday harakatlar, qanday izchillikda va qaysi muddatda bajarilishi kerakligi, ya’ni nima, qayerda va qaysi tartibda amalga oshirilishi lozimligini belgilab beradi. Faoliyatni rejallashtirish kelgusida amalga oshiriladigan ishning maqsadi, tarkibi, tuzilmasi va bajarish muddatlarini belgilash demakdir.

Ishni tashkil etish - pedagogik jamoaning birgalikda samarali ishlashlari uchun kim va qanday ishni bajarishi, majburiyatları, huquqlari, javobgarligini, kim bilan va qay tarzda o‘zaro munosabatda bo‘lish lozimligini belgilash, taqsimlashni hal etish jarayonidir.

Raxbarlik - boshqaruvni rejallashtirish va tashkil qilishni to‘g‘ri bajarishi tufayli maktabgacha ta’lim tashkilotidagi jamoani samarali birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik jamoadagi qulay ijtimoiy - psixologik muhitni saqlab turish uchun boshqaruv sub’ekti amalga oshiradigan hatti-harakatlar uyg‘unligi rahbarlik qilish deb ataladi.

Nazorat qilish - maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ko‘nikish jarayonini nazorat qilish tashkilot rahbari va tajribali pedagoglar zimmasiga yuklangan. Bu borada xodimlarning innovatsion faoliyatni tashkil etish mahorati kuzatib boriladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat tomonidan tasdiqlangan 2018-yil 7-iyuldagagi Maktabgacha ta’lim Vazirligining 4-sonli hay’at yig‘ilish qarorida ko‘rib chiqilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ish tashkil etilgan. Dasturga muvofiq kichik va o‘rta hamda katta, maktabga tayyorlash guruhlarda mashg‘ulot jarayonlarini innovatsion faoliyat asosida olib borish maqsadga muvofiqli.

Bunda boladagi mavjud izlanuvchanlik, iste’dod, yaratuvchanlik, ixtirochilik qobiliyatları shakillanib boradi. Kelajakda bu bolalar fizika, astronomiya, informatika, iqtisodiyot va boshqa fanlarning kasb egalari bo‘lishiga erishiladi. Tabiat bilan tanishtirish ochiq mashg‘ulotlarida ham interfaol o‘yinlar, innovatsion faoliyatni tashkil etgan holda o‘tkazilish yaxshi natija beradi. Bunda bolalar ochiq tabiat qo‘ynida yangi bilim ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

Bu kabi innovatsion faoliyatni nutq o‘stirish qisqa o‘quv mashg‘ulotlarida, jismoniy mashqlarni takroriy bajarish jarayonida, musiqiy bilim berish va badiy adabiyot, syujetli o‘yinlar, atrofimizdagi olam bilan tanishtirish, nutqni rivojlantirish, elementar matematika, aplikatsiyalar yasash, rasm chizishni o‘rganish vaqtida qo‘llash ijobiy samara beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni tashkil etish orqali bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda uning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bola bu faoliyat orqali berilayotgan bilimlarni tez o’zlashtiradi. Bolaning asosiy faoliyat turi o‘yin bo‘lib, innovatsion faoliyatni o‘yin bilan birga ko‘rsatish va bajarish uning xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Xotiraning logik, harakat va emotsiyal turi ham yaxshi rivojlanadi. O‘yin orqali bolaga ta’lim berish va rivojlantirish, innovatsion faoliyatga moslashtirish mumkin. Bunda bolaning ijodiy rivojlanishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Kelajakda bolada ikkinchi tilga bolgan qiziqishi ortadi va shu til haqidagi qisqa tasavvurlari paydo bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, kelajagimiz egalari bo‘lmish yosh avlodni zamon talablari darajasida o‘qitish kelajakda barkamol inson, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashdek murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal etish ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy mahorati, bilimdonligi, ijodkorligi, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o‘quv - tarbiya jarayonini tashkil etishi va boshqarishiga bog‘liqdir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha yoshdagি bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari.– Toshkent. 2018
2. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. – Toshkent 2018-yil
3. “Bolajon” tayanch dasturi (Takomillashgan “Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablari” asosida ishlab chiqilgan) Toshkent – 2016
4. Bilimdon (qisqa muddatli guruuhlar uchun dastur) – L.G.Evstaf’eva I. V.Grosheva, S.S.Mirjalolova, M.N.A’zamova –Toshkent 2014y